

JINOYAT HUQUQIDA KAM AHAMIYAT QILMISHLARNING JINOYAT HUQUQIY CHEGARASI

Komilov Shermuhammad Shuhratjon o'g'li

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi "Sud-huquqiy faoliyat" yo'nalishi

2-bosqich 25-guruh o'quvchisi Telefon: +998901647469

wwera282@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jinoyat huquqida jinoyatlarni istisno qiladigan holatlardan biri bo'lgan kam ahamiyatli qilmishlar tushunchasi, belgilari, kam ahamiyatli qilmishlar chegarasi haqida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, kam ahamiyatli qilmish, jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavfli, formal belgi, moddiy belgi.

Аннотация: в данной статье речь идет о понятии малозначительных деяний, признаках, пороге малозначительных деяний, являющихся в уголовном праве одним из обстоятельств, исключающих преступления.

Ключевые понятия: преступление, малозначительное деяние, состав преступления, общественно опасное, формальный признак, материальный признак.

Abstract: this article deals with scholarly opinions about the concept, signs, limits of low-importance acts, one of the circumstances that exclude crimes in criminal law.

Key concepts: crime, less significant act, composition of crime, social danger, formal character, material character.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasida kam ahamiyatli qilmishlar tushunchasi belgilangan bo'lib, unga ko'ra garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki



harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi. Mazkur norma bilan qonun chiqaruvchi faqatgina kam ahamiyatli qilmishning umumiy chegaralarigagina ta'rif beradi. Biroq, aynan qaysi qilmishlar kam ahamiyatli deb topilishi, qaysilari topilmasligi haqidagi belgilar aniqlashtirilmaydi. Kam ahamiyatli qilmishlarga olimlar tomonidan turli ilmiy tushuntirishlarga guvoh bo'lamiz. Jumladan, M.Usmonaliyev: "Ijtimoiy xavflilik jinoyatning muhim belgilaridan biri bo'lib, kam ahamiyatli qilmishlarni jinoyat deb hisoblash uchun yetarli darajada ijtimoiy xavflilikka ega bo'lmaydi. Aynan ana shu yetarli darajada ijtimoiy xavflilikka ega bo'lmasligi uning jinoyatligini istisno qiladi. Kam ahamiyatli qilmishlarning qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlarning boshqa turlaridan farqi shundaki, qilmishda jinoyat tarkibining aybliligi va huquqqa xilofligi belgilari mavjud bo'ladi",¹- deya izoh beradi.

Hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan ham sudlar uchun jinoyatlarni istisno qiladigan holatlar masalasida, xususan kam ahamiyatli qilmishlar, ularning zaruriy belgilari hamda chegaralari haqida aniq tushuntirishlar berilmagan.

Shu sababli ham bu masalalarda olimlar o'zlarining ilmiy xulosalarini bildirib kelishadi. Ayrim olimlar o'z maqolalarida kam ahamiyatli qilmishlar faqatgina "qasddan sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bilan cheklanadi (chegaralanadi)"² deb takidlaganlar. Boshqa bir olimlar esa qonun chiqaruvchi jinoyatda kam ahamiyatli qilmishning chegaralarini aniq tasvirlab bermagan va u barcha jinoyatlar toifasiga taaluqli deb fikrlashadi. ba'zilarida esa kam ahamiyatli qilmishlar deb faqatgina qasddan sodir etilgan va og'ir bo'lmagan qilmishlarga nisbatan tatbiq etiladi deyilgan fikrlar yo'q emas. Lekin huquqshunos olimlardan biri D.Korsun "har qanday qilmishni uning xususiyati va ijtimoiy xavfliligidan qat'iy nazar kam ahamiyatli deb topish mumkin"³ deb fikrlaydi. Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inobatga olib xulosa qilsak, tog'ri hozirda qonunchiligimiz ham Jinoyat kodeksining 36-moddasida aynan qanday turdagi qilmishlar doirasi

¹ Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. M. Usmonaliyev. —T., "Yangi asr avlodi", 2010. 342-bet.

² Н.Кузнецова. Проблемы квалификации преступлений: Лекции по спецкурсу "Основы квалификации преступлений" Городец, 2017.-С-206.

³ Д.Корсун. Малозначительное деяние в уголовном праве: проблемы теории и практики: Автореф. Москва. 2019. С-9.



kam ahmiyatli deb topilish haqida hech qanday cheklash yoki aniqlik kiritmagan bu esa taqiqlanmagan bo'lsa demak mumkin degan prinsipni ishlashiga zamin yaratadi. Kam ahmiyatli qilmishlar aniq bir qolip yoki andazaga ega emas. Ular huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan har bir vaziyatga alohida yondashishni talab qiladi.

Jinoyat qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasi, ya'ni kam ahmiyatli qilmishlarni nafaqat jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, balki tajovuz obyektiga ko'ra ham chegaralashga urinish holatlari kuzatilgan.

Oz'bekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasida kam ahmiyatli qilmishlar faqat ijtimoiy xavfli bo'lmisligi kerak deb ta'kidlangan, yuqoridagi qo'riqlanadigan obyektlar esa buning aksi ya'ni ijtimoiy xavfliligi yuqori bo'lgan jinoyatlar hisoblanadi. Shuningdek, ba'zi olimlar kam ahmiyatli qilmishlarga qo'shimcha kiritib, aynan qaysi normalarga nisbatan ushbu institutni qo'llab bo'lmisligi lozimligini keltirib o'tish kerak deb fikrladilar.

Yuqoridagi, ko'plab qarama-qarshi fikrlarning mavjudligi kam ahmiyatli qilmishlarni chegaralash masalasida yagona fikrni amaliyotda shakillanmaganligiga olib kelgan. Lekin yuqoridagi fikrlar bizni kam ahmiyatli qilmishlar asosan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan qilmishlarda uchraydi degan fikrni tan olishga majbur qilmoqda. Natijada, kam ahmiyatli qilmishlarning chegaralarini jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra aniqlash biroz mushkul hisoblanadi.

Qilmishning kam ahmiyatligi qilmishning xususiyati, sodir etish sharoiti, zararli oqibatning jabrlanuvchi hayotida deyarli ahmiyatga ega emasligi, subyektning maqsadi jabrlanuvchiga jiddiy zarar yetkazish maqsadining yo'qligi va hokazolarni aniqlash orqali belgilanadi. Demak, qilmishning kam ahmiyatligi individual ravishda aniqlanadi.

Qilmishni kam ahmiyati deb topish masalasi hal qilinayotgan vaqtda jinoyat sodir qilish usuli, motivi va maqsadi aybi darajasi hisobga olinadi. Ammo aybdorning qilmishiga chin ko'ngildan pushaymonligi, yetkazilgan zararni o'z ixtiyori bilan qoplaganligi, turmush tarzi, oilaviy ahvoli va hokazo holatlar qilmishni kam ahmiyatli deb topish vaqtida qilmishni jinoyat deb yoki kam ahmiyatli deb topishda hisobga olinmaydi. Kam ahmiyatli qilmish tufayli yetkazilgan zararni qoplash uchun ko'p kuch va harajatlar talab qilinmaydi.



Kam ahamiyatli qilmishlar masalalasida yana bir taniqli olim M.Rustamboyev ularga xos bo'lgan ikki belgi mavjudligi xususida: "Qilmishning kam ahamiyatliligi jinoyat huquqida quyidagi ikki belgi: birinchidan, Jinoyat kodeksida jinoyat belgilarining formal jihatdan mavjudligi (formal belgi)da namoyon bo'ladi; ikkinchidan, ijtimoiy xavfli emasligi, ya'ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar etkazmasligi yoki zarar etkazish xavfini keltirib chiqarmasligi (moddiy belgi)"⁴ kabi belgilarga egadir e'tirof etadi.

So'zimiz yakunida aytish mumkinki, ayni damda qilmishni "kam ahamiyatli" deb topish sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlarining vakolatiga kiradi. Agar qilmish "kam ahamiyatlilik" belgisiga ega bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emas, qo'zg'atilgan jinoyat ishi esa jinoyat tarkibi mavjud emasligi tufayli tugatilishi kerak bo'ladi. Lekin vaqti kelib bo'lsada, bu masalada O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlar yuzasidan tushuntirish berishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Yangi asr avlodi", 2010. 342-bet.
4. Н.Кузнецова Проблемы квалификации преступлений: Лекции по спецкурсу "Основы квалификации преступлений" Городец, 2017.-С-206.
5. Д.Корсун Малозначительное деяние в уголовном праве: проблемы теории и практики: Автореф. Москва. 2019. С-9.
6. М.Н.Рустамбойев. Jinoyat huquqi (umumiy qism) oliy o'quvlari uchun darslik. T.: – "ILM ZIYO" – 2005. 101-bet.

⁴ М.Н.Рустамбойев. Jinoyat huquqi (umumiy qism) oliy o'quvlari uchun darslik. T.: – "ILM ZIYO" – 2005. 101-bet.

